

O'RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN KLINIK LABORATORIYA TEKSHIRISH USULLARI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida klinik laboratoriya tekshirish usullari talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo'llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me'yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko'nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me'yoriy asoslar

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Klinik laboratoriya tekshirish usullari

1. Ayirish tizimining organlari .
2. Hazm sistemasining tuzilishi va uni tekshirish.
3. Gemopoezi.
4. Nafas sistemasi
5. Teri - tanosil kasalliklari

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstuktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Ayirish tizimining organlari	Buyrakning tuzilishini va siydikning hosil bo'lishi sohasi faoliyatini bilishi, siydik ayirish organlarining kasalliklarini, siydikni klinik tekshirishni, siydikni yig'ish, siydikni fizik-kimyoviy tekshirishlarga tayyorlash, oqsilni sifatli aniqlashni, glyukozani ekspress tilimchalar yordamida aniqlashni Siydik mikroskopiyasini, siydik cho'kmasidan surtma tayyorlash, siydik cho'kmasini mikroskopiyasi, siydik tarkibidagi shaklli elementlarni tekshirish haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	20 %	8 ta
2	Hazm sistemasining tuzilishi va uni tekshirish	Ichi organlar va ularning joylashuvi, hazm tizimi kasalliklari, oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak suyuqliklarini tekshirish, me'da suyuqligini mikroskopik tekshirish, axlat va perinatal burmalardan olingan namunalarni tekshirish, gelmintlar va ularni tarqalishi, gelmintlarni mikroskopik tekshirish, najasdagi yashirin qonni piramidon sinamasi bilan tekshirish haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim,	25 %	10 ta
3	Gemopoezi	Qonning vazifasi, shaklli elementlarning fiziologik roli, qon kasalliklari, anemiya, leykoz, qon guruhlar va rezus faktor, qondagi shaklli elementlarni aniqlash usullari, leykotsitlar morfologiyasi, eritrotsitlar morfologiyasini tekshirish haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim,	20 %	8 ta
4	Nafas sistemi	Nafas sistemi kasalliklari, balg'amni klinik tekshirish, balg'amni yig'ish usullari, balg'amni mikroskopik usulida tekshirish, balg'amni gram usulida bo'yash, gram usulida bo'yalgan surtmani mikroskopik tekshirish, balg'am surtmasini sil-nilsen usulida bo'yash haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim,	15 %	6 ta

5	Teri - tanosil kasalliklari.	Venerik kasalliklar, zaxmni laboratoriyada tekshirish, so‘zakda ajratmalarni tekshirish, qinning tozalik darajasini aniqlash haqida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim,	20 %	8 ta
---	------------------------------	--	------	------

V. Baholanadigan kognitiv ko‘nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma’lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %
2.	Qo‘llash	O‘zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta’limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog‘liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To‘rtta variantdan bittasi to‘g‘ri bo‘lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to‘g‘rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to‘g‘ri javob 2 ball, noto‘g‘ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat’iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko‘chirish, yordam so‘rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Aripova G.S, Nazarova N.S, Kim L.I., Klinik laboratoriya tekshirish usullari "Ilm Ziya". Toshkent.2007
2. Aripova G.S, Nazarova N.S "Klinik va biokimyoviy tekshirish usullaridan o'quv qo'llanma Toshkent "Retush" 2004 yil.
3. Aripova G.S, Nazarova N.S "Klinik va biokimyoviy tahlillarning me'yornomasi" "Retush" Toshkent 2005 yil